O'ZBEK TILIDA FITONIMLAR LINGVOPOETIKASI (NAVOIY ASARLARI MISOLIDA)

Saidov Yoqub Siddiqovich
Buxoro davlat universiteti
tilshunosligi va jurnalistika kafedra
professori, filologiya fanlar dotsenti

Bahromova Gulyora G'ayratovna
Buxoro davlat universiteti o'zbek
tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi magistranti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallarida ishtirok etgan fitonimlar va ularning lingvopoetik jihatdan qisqacha tahlil qilingan.
Kalit so'zlar: Fitonim, lingvopoetika, poetik fonetika, poetik leksika.
ANNOTATION: This article briefly analyzes the phytonyms and their linguopoetics in Alisher Navoi's ghazals.
Key words: Phytonym, linguopoetics, poetic phonetics, poetic lexicon
АННОТАЦИЯ: В данной статье кратко анализируются фитонимы и их лингвопоэтика в газелях Алишера Навои.
Ключевые слова: Фитоним, лингвопоэтика, поэтическая фонетика, поэтическая лексика..

Fitonim nomlari ajdodlarimizning tarixiy asarlari orqali bizgacha yetib kelgan bo`lib,xususan, bir o`simlik nomlarining ikki-uch xil variant qo`llangan Abu Rayhon Beruniy qalamiga mansub "Saydana", tib qonunlarining mashhur vakili ibn Sinoning "Tib qonunlari", "Kitob ush-shifo", Boburning "Boburnoma" va shu kabi qator asarlar o`simlik nomlari qayd etilgan mashhur asarlar hisoblanadi. O`zbek tilida qo`llanilayotgan fitonimlar tadqiqi grammatik, leksik, semantik jihatdan ham ahamiyatli bo`lib, ularning mazmunini aniqlashda o`simliklar nomlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi. Yuqorida qayd etilgan asarlarda keltirilgan fitonimlar davr nuqtayi nazaridan o`ziga xos ko`rinishga ega bo`lib, ular hozirgi o`zbek tilida qo`llaniladigan o`simlik nomlaridan talaffuz jihatdan ham, nomlanish jihatdan ham biroz boshqacharoq ko`rinish kasb etishi mumkin.

Necha minglardirki, o'zbek xalqi Alisher Navoiyni o'qiydi, o'rganadi. Yuqorida nonimi tilga olgan ajdodlarimizning va buyuk shoir Alisher Navoiy asarlari ham tafakkur gulshani bo'lish bilan birga, g'oyat boy so'z xazinasi hamdir. Shoir asarlarida o'zbek xalqi turmush tarzi va dunyoqarashining barcha sohalariga oid so'z va iboralarni uchratish mumkin.O'simlik nomlari har bir xalq tilida ma'lum qatlamni tashkil qiladi. O'simlik nomlarida shu xalq yashab kelgan tarixiy-geografik hududga va iqlimga mos keluvchi nabotot olami ko'lami ham namoyon bo'ladi.

Navoiy asarlari o'z mazmun-mundarijasiga ko'ra juda boy bo'lib, unda turkiy-o'zbek xalqi turmush tarzining, ruhiy va ma'naviy olamining turli sohalariga oid so'zlar mavjud. Shulardan biri o'simliklar olamiga mansub so'zlardir. Alisher Navoiy asarlari tilidagi o'simlik nomlari doirasida gul so'zi ishtirokida so'z yasalishi keng tarqalganligi, bu morfema vositasida 50 dan ortiq yasalgan so'z mavjudligi qayd qilinadi. Shuningdek, uning asarlarida lola, nilufar, sandal, sarv, suman va g'uncha so'zlari vositasida yasalgan so'zlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Ma'lumki, boshqa so'zlardan farqli o'laroq, o'simlik nomida shu o'simlikning «tupi» tushunchasi ham, «mevasi» tushunchasi ham,

«guli» tushunchasi ham ifodalanadi. Uning «tupi», yoki «mevasi», yoki «guli» ma'noda ekanligi nutqiy birlikdan (kontekstdan) anglashiladi. G.H. Ne'matova to'g'ri ta'kidlaganidek, *«O'zbek tili o'simlik nomlari leksemalarining ma'noviy qiymati «o'simlik», «hosil», «mahsulot» kabi asosiy semalarni o'z ichiga oladi va nutqda sharoit, qurshov so'zlari ta'siri ostida bu ma'nolardan birini voqealantiradi».*

Navoiy asarlaridagi fitonimlarning lingvopoetikasi ham juda tahlil talab mavzulardandir. Lingvopoetikaning poetik fonetika yo'nalishi yozuvchi tomonidan tanlab olingan uslubni yaratishda ma'lum tovushning o'ziga xos tarzda o'zgarishi, orttirilishi va shunga o'xshash holatlarning yuzaga chiqishi yordamida hosil bo'ladi. Buni shoir g'azallari misolida ko'rishimiz mumkin:

Tiyg'i ishqing yorasidur butmagon,
Dardini har knmga oytib butmagon,
Hajr sahrosidur ohim o'tidin
Anda gul yoxud giyohe butmagon.

Bu tuyuqda giyoh fitonimida "e" tovushining qo'shilishi vazn talabi bilan ro'y beryapti. Bu poetik fonetikaga yorqin misol bo'la oladi.

Poetik leksikologiya yo'nalishining tadqiqot ko'lami juda keng qamrovlidir.U o'z doirasida sinonim, omonim, antonim so'zlarni, ma'no ko'chishlarining barcha jabhalarini(metafora, metonimiya,sindekdoxa, vazifadoshlik, kinoya), chegaralangan leksikalarni(dialektizmlar, istorizmlar, arxaizmlar…) tahlil qiladi. Ma'no ko'chishi bir predmet nomining keyinchalik boshqa predmetni anglatish xususiyatiga ega bo'lishidir. Bunday ko'chish shu nom bilan atalayotganlik yoki undan ortiq predmet o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Ma'no ko'chishning metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi turlari mavjud. Nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo'yoq berish niyatida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda qo'llash metafora deyiladi.Voqelikdagi narsa-hodisalar orasidagi bizga ko'rinmagan, biroq san'atkorona o'tkir nigoh bilan ilg'angan o'xshashlik, aloqadorlik asosidagi ko'chimlar o'quvchini hayratga soladi, unga zavq bag'ishlaydi. Badiiy asarda eng ko'p qo'llanuvchi ko'chim turlaridan biri metaforadir. Tabiatan, metaforani yashirin

o'xshatish deb atash mumkin.

Ma'rifatparvar shoirimiz ijodida betakror yashirin o'xshatishlar(metaforalar) bisyordir:

Yuzu xolingdin Navoiyning ko'zidur qon aro

Loladekkim, dog'i bo'lmish ko'z qarosi hay'ati.

Ijodkor bu misralarida ko'zining ranggini lolaga qiyoslaydi. Bu yerda o'xshatish vosita sifatida – dek qo'shimchasi qo'llanilgan. Bundan tashqari Navoiy ijodida fitonimlar orqali tashbeh, tanosub, istiora, o'zakdosh so'zlardan ham foydalanib ajoyib misralar yaratgan.

1.Hayot bog'ida to sarvu lola bo'lg'usidur,
Mening mumiddi hayotim piyola bo'lg'usidur.

2. Gulni sarv uzra xayol ettim ko‘ngul bo‘stonida,
Rost aytay, sarvi gulro‘yum kibi zebo emas

3.Emas bog‘ ichra sorig‘ lola zanbaq, bilki, har sori
Yangi dog‘ o‘rtab ul gul ishqidin sorg‘ordi ruxsor.

4.Ramida ko‘nglum erur ishq mubtalosi hanuz,
Boshimda bordurur ul sarvqad havosi hanuz.

5.Jilvamu qildi sarig‘ bo‘rkin kiyib ul sarvinoz,
Yoki chekti shu’la axzar jism ila sham’i tiroz.

6.Telbalik bog‘i guli nilufari erkin bukim,
Ham ko‘kardi xalq toshidin tanim, ham bo‘ldi resh.

7.Qo‘y duru feruza bahsinkim, nujumu charxni
Nilufar bargi uza shabnamcha ko‘rmas himmatim.

8Gulshani faqr ichra-to kirdim erur, balkim emas
Gunbazi nilufariy gulshanda bir nilufarim.

9.Lola qon uzra bo‘yolib, o‘t uza anbar qo‘yub,
Bor parixon chiqmog‘on g‘oyib chechaklardur pari.

10.Raxshining javlonini ko‘rgach yer o‘psam men zaif,
Yo‘q ajab, chun xam bo‘lur ermish itik yeldin giyoh.

Navoiy tuyuqlaridan ham fitonimlar ishtirok etgan tajnis san’atini ham ko’rishimiz mumkin:

Ul pari ishqida bu devonani,
Eyki istarsen, kelib gulxanda ko‘r.
Bir qadah ul gulni xandon ayladi,
Ey ko‘ngul, nazzora qil, gul xanda ko‘r.

Yuqorida tilga olgan fitonimlardan tashqari Navoiy asarlarida keltirilgan o’simlik dunyosiga oid so’zlardan namunalar keltiramiz va hozirgi kundagi nomlarini qiyoslaymiz, masalan:

Navoiy asarlaridagi fitonimlarning ayrimlari	**Hozirgi muqobillari**
Giyoh	O’t-o’lan
Chigit	O’simlik urug’i
Alaf	Ko’kat
Dona	Urug’, don
Nabotot	O’simliklar
Zardolu	O’rik mevasi

Nor	anor
Naxlbun	Xurmo daraxti

Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan o'simliklar nomlari va ular bilan bog'liq so'zlarning ko'pchiligi hozirgi o'zbek tiliga ayni shakl va ma'noda, fonetik shakli biroz o'zgargan ko'rinishda, ma'nosida biroz o'zgarish yuz bergan tarzda yetib kelgan. Masalan: arpa (arpa), budg'ay//bug'day (bug'doy), chechak (chechak, maysa), o't (o't, maysa), qamish (qamish), tikan (tikan), alma (olma), ig'och (yog'och, daraxt), yig'och (yog'och, daraxt), tal (tol), terak (terak), uzum (uzum), chigit (chigit).

Xulosa qilib aytganda, buyuk mutaffakkirimiz Alisher Navoiy ijodini tahlil qilish jarayonida fitonimlar dunyosini, lingvopoetik tadqiq asoslarining barcha yo'nalishlarini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ne'matova G. H. O'zbek tilida o'simlik nomlari leksemalari: tizimi va badiiy qo'llanishi. Filol. fan. nomz... dis. avtoref. — Toshkent, 1998, 14-b.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati: 4 tomlik. – Toshkent: Fan, 1983-1985. T. I. – 782 b. T. II. – 642 b. T. III. – 622 b. T. IV. – 636 b.
3. Maxfuza Usmanova, НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ҚЎЛЛАНИЛГАН ФИТОНИМЛАРНИНГ ҲОЗИРГИ КУНДАГИ ҚИЁСИ , Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №54 (science.i-edu.uz, jspi.uz)

4.Maxfuza Usmanova, Использование в произведениях А.Навои сложных существительных с морфемой "гул" , Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №82 (science.i-edu.uz, jspi.uz)